

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA EPONIMLARNING LINGVOKULTUROLOGIK ASPEKTLARI

Ziyodullayev Akmal Raupovich,  
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti(PhD)

*Annotatsiya. Maqolada ingliz va o'zbek eponimlarning lingvomadaniy tabiati xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, ikki til eponimlari lingvokulturologik aspektlari misollar asosida tahlil qilingan. Ingliz va o'zbek tili eponimlarining umumiy va xususiy jihatlari ochib berilgan.*

*Kalit so'zlar: eponym, lingvokulturologik xususiyat, internatsional xususiyatli eponym, milliy xususiyatli eponym, sohaga oid eponimlar, eponym evolyutsiyasi, til variatsiyasi va moslashish*

## ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ АСПЕКТЫ ЭПОНИМОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Зиёдуллаев Акмал Раупович,  
докторант Бухарского государственного университета(PhD)

*Аннотация: В статье описываются особенности лингвокультурологической природы английских и узбекских эпонимов. Также на основе примеров анализировано лингвистические и культурологические аспекты эпонимов двух языков. Выявлены общие и специфические аспекты английских и узбекских эпонимов.*

*Ключевые слова: эпоним, лингвокультурная особенность, международный эпоним, национально значимый эпоним, доменные эпонимы, эволюция эпонимов, языковая вариация и адаптация*

## LINGUOCULTURAL ASPECTS OF EPONYMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Ziyodullayev Akmal Raupovich,  
doctoral student(PhD) of Bukhara state university

*Annotation. The article describes the features of English and Uzbek eponyms. Also, linguocultural aspects of the two languages have been analysed through examples. Common and typical features of the eponyms have been identified.*

*Key words: eponym, linguocultural feature, international eponym, nationally recognized eponym, domain specific eponyms, evolution of eponyms, language variation and adaptation*

Kirish. Bugungi kunda eponim birliklar ilm-fan sohalari doirasida maxsus leksika sifatida ikki ko'rinishda 1) sohaga oid maxsus termin hamda 2) odatdagi iste'molda bo'lgan turdosh ot tarzida lug'atlarda o'z aksini topgan. Lug'atda izohlanganidek "1. eponym - a name, esp. a place name, derived from the name of a real or mythical person; 2. the name of the person from which such a name is derived" [1], ya'ni haqiqiy yoki afsonaviy shaxs nomiga atalgan ixtiro, inshoot nomi, geografik joy nomlari eponimlar hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi. Eponimlar termin sifatida maxsus yo'nalishlardagi tadqiqotlarning markazida bo'lishiga qaramay, ikki til qiyosida eponimlarning lingvomadaniy xususiyatlarini yoritish masalasi muayyan izlanishlarni talab etadi. Shuningdek, eponim birliklar semantikasi ham ilmiy ahamiyat kasb etadi, chunki u muayyan xalq leksikasining lingvistik va madaniy xususiyatlarini, etnik ong va tafakkurini aniqlash, tahlil qilish, semantikasida madaniy komponentlarni tavsiflash imkonini beradi. Zero, til va madaniyat bir-biriga chambarchas bog'liqdir. Jahon tilshunosligida O.Kovalchuk ingliz va ukrain, J.T.Taubayev esa ingliz va qozoq eponimlari qiyosiy tahlillarini amalga oshirishgan.

Zamonaviy ingliz va o'zbek tillarining eponimlari ikki xalq madaniyatiga muvofiq xalqaro, milliy, ijtimoiy ma'lumotlarni aks ettiradi. Eponim birliklar ingliz va o'zbek madaniyatining umumiy yoki o'ziga xos merosidan ma'lum sifat, xarakter xususiyati, yashash tarzi yoki tarixiy voqealarni ifodalagani uchun muhim lingvomadaniy ahamiyat kasb etadi. Ingliz va o'zbek eponimlari real hayotda yashab o'tgan insonlar, mifologik qahramonlar, adabiy va kino personajlar, toponimlar haqida motivatsion ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtiradi.

Til birliklarining madaniy belgilari, shu jumladan, ingliz va o'zbek tillarida berilgan eponimlar xususiyatini ochib berish zaruratining kuchayishi global axborot makoni rivojlanishi bilan ortib boradi.

Natija va muhokamalar. Tadqiqotimizda ingliz va o'zbek tillarida eponimlarning ikkala til

madaniyatiga xos bo'lgan umumiy va xususiy tabiatini aniqlashni maqsad qildik. Izohli, etimologik va qiyosiy tahlillarga ko'ra eponimlar tarkibidagi atoqli otlar fan va madaniy kontekstda lingvistik, tarixiy, etnografik, madaniy ma'lumotlarni aks ettiradi. Eponimlarni qiyosiy jihatdan lingvomadaniy tadqiqi ushbu til madaniyatida semantik izomorf va alomorf belgilarni, ya'ni o'xshash va farqli madaniy hodisalarni aniqlash imkonini beradi va shu bilan ularning tabiatini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Ilmiy izlanishlarimiz jarayonida eponimlar antroponim, toponim, mifonim, onimlar aralashmasidan hosil bo'lgani, antroponim asosida yaratilgan eponimlar son jihatdan ko'pchilikni tashkil qilishiga guvoh bo'ldik. Atoqli otlar eponimlarning ma'nosini motivatsiyalovchi madaniy zamin yaratishga xizmat qiladi va muayyan kashfiyot haqida oydinlik kiritadi. Antroponimning individuallashtirilgan ma'nosi eponimning semantik mazmunini yashirin shaklda motivatsiyalaydi va shuning uchun uni semantik-etimologik tahlil qilish yoki turli xil tashqi kontekstni qayta qurish orqali tushunish mumkin, chunki tarkibidagi atoqli ot odatda muayyan jamiyatga tegishli madaniyat haqidagi bilimni talab qiladi.

Ma'lumki, eponimlar madaniy aspektda determinatsiyalangan tipik xarakterga ega ma'lumotlarni namoyon etib kelgan va ularni quyidagi uch yo'nalishda tavsiflash mumkin:

1. Internatsional xususiyatli eponimlar: dizel, badminton, amper, Aleksandria, Uzbekistan. Bu yo'nalishda eponimlar muayyan tilga emas, balki ko'p madaniyatli makonga mansub bo'lgan birliklar qator xalqlarning kollektiv etnik ongi va mentalitetiga chuqur singib ketgan.

2. Milliy xususiyatli eponimlar: masalan, Trumponomics – the economic policies of the US president Donald Trump, esp. tax cuts, deregulation, and economic nationalism[6], ya'ni Trumponomika – AQShning 45-prezidenti Donald Trampning iqtisodiy siyosati, xususan, soliqlarni kamaytirish, tartibga solishni bekor qilish; yoki Skutniks – Lenny Skutnik became momentarily famous in 1982 after an Air Florida plane crashed into the icy Potomac River in Washington, D.C. He dove into the river to save a passenger. Days later, Skutnik sat in the gallery for the State of the Union. President Reagan pointed him out by name and commended him[3], ya'ni Lenni Skutnik 1982-yilda Air Florida samolyoti Vashingtonda muzlab qolgan Potomak daryosiga qulaydi. Skutnik sovuq va muz bo'lishiga qaramay daryoga sho'ng'ib yo'lovchini qutqaradi, uning bu jasorati Skutnikka shuhrat keltiradi. Prezident Reygan uning jasoratini maqtab, State of the Union yig'inida tilga oladi. Shundan so'ng Skutnik nomi eponimga aylanadi.

Xuddi shunday milliy xususiyatli eponimlarni o'zbek tilida ham uchratish mumkin. Masalan, Marg'ilon ipagi – O'zbekistondagi eng yirik ipak fabrikasi joylashgan Marg'ilon shahri o'zining ipak matosi va atlas bilan dunyoga mashhur hisoblanadi. Farg'ona vodiysida birinchi ming yillikning boshida Xitoydan olib kelingan ipakdan eng ajoyib mahsulotlar ishlab chiqarish o'zlashtirildi. Ammo 7-8-asrlarga kelib bu erda ipakchilik o'zlashtirildi va Marg'ilon shahri butun O'rta Osiyo mintaqasining "ipak" poytaxtiga aylandi. Eng yaxshi ipak mahsulotlari Buyuk ipak yo'li bo'ylab ko'plab mamlakatlarga, jumladan, Yevropa mamlakatlariga ham olib kelingan [7]; Samarqand qog'ozi – tut daraxti po'stlog'i mag'zidan tayyorlanadigan qog'oz. Ko'p asrlar davomida jahon sifat standartini belgilab bergan, uni ishlab chiqarish Samarqandda boshlangan. Somoniylar davridan beri u uzoq vaqt davomida butun Qadimgi dunyo uchun standart bo'lib xizmat qilgan [11]. Bunday eponimlar boshqa mamlakat ijtimoiy muhitida mavjud emas. Ular faqat muayyan bir madaniyatda ma'lum va milliy xususiyatga ega bo'lgan aniq realia yoki mashhur inson nomi bilan bog'liq eponim birliklardir.

3. Ijtimoiy hayotda o'z aksini topgan, lekin ilmiy va kasbiy soha bilan chegaralangan antroponim tarkibli terminlar:

Avogadro's law (Avogadro qonuni), a statement that under the same conditions of temperature and pressure, equal volumes of different gases contain an equal number of molecules [5], ya'ni, harorat va bosimning bir xil sharoitlarida, turli gazlarning teng hajmlari teng miqdordagi molekullarni o'z ichiga olish qonuniyati;

Doppler effect – the apparent change in frequency of a wave in relation to an observer moving relative to the wave source [2,421-424], ya'ni to'lqin chastotasining to'lqin manbasiga bog'liq holda harakatlanayotgan kuzatuvchiga nisbatan ko'zga ko'rinarli o'zgarishi. Bugungi kunda doppler usuli bir qancha sohalarda, jumladan, meditsinada ham keng qo'llanilib kelmoqda.

Ijtimoiy hayotda o'z aksini topgan, lekin ilmiy va kasbiy soha bilan chegaralangan antroponim tarkibli terminlarni o'zbek tili misolida ko'rib chiqamiz. Masalan:

Kubraviya tariqati taxminan 16 - 17 yoshlarida ilm olish va bilimni mustahkamlash maqsadida Vatani Xorazmni tark etib, Eron, Misr, Shomu Iroq mamlakatlarini kezgan, 1185-yilda Xorazmga qaytib kelgan Najmiddin Kubro nomiga atab qo'yilgan. Bu vaqtda Najmiddin Kubro 40 yoshda

bo'lib, 25 yildan ortiq umrini ilmga bag'ishlagan edi. Yetuklik, komillik yo'li mana shunday og'ir va mashaqqatlidir. U Xorazmga qaytgach, katta xonaqoh qurdirib, tariqatda yangi bir maktab – yo'nalish hisoblanmish kubraviya silsilasini asosladi [4,404-406];

Zulfiya mukofoti – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 10-iyundagi PF-2326-son farmoni asosida ayolni muqaddas bilish, unga alohida ehtirom ko'rsatish, ozod va obod yurtimiz kelajagi bo'lgan har tomonlama etuk yoshlarni tarbiyalashdagi beqiyos o'rnini yana bir bor e'tirof etish, barkamol, oqila xotin-qizlar avlodini voyaga etkazish, ular orasidagi iqtidorli yoshlarning adabiyot, san'at, fan va madaniyatni rivojlantirishdagi yutuqlari, tengdoshlarining milliy istiqbol g'oyalari va madaniy-ma'naviy qadriyatlarga e'tiqodining yuksalishi yo'lidagi ibratli faoliyati, keng ko'lamlil islohotlarni jadallashtirishdagi faol ishtirokini rag'batlantirish maqsadida [8] ta'sis etilgan.

Eponimlarning lingvomadaniy xususiyatlari terminlarning yaratilishi va qo'llanilishida o'z ifodasini topgan til va madaniyat xususiyatlarini bildiradi. Eponimlar genezisini o'rganib chiqib, tarixiy va ijtimoiy kontekstni aks ettiruvchi lingvistik va madaniy xususiyatlarga ko'ra eponimlarni quyidagicha tasniflashni lozim topdik:

Tarixiy – madaniy eponimlar ko'pincha tarixiy voqealar, madaniyat arboblari yoki jamiyat rivojiga hissa qo'shgan taniqli shaxslar bilan bog'lanadi. Ular ushbu insonlarning til va madaniyatga ta'sirini aks ettiradi, ya'ni ularning madaniyatga qo'shgan hissasini e'tirof etish va nomlarini xotirlash uchun xizmat qiladi. Masalan, “sendvich” termini ikki bo'lak non orasiga go'sht qo'yib tayyorlangan tushunchani ommalashtirgan 4-sendvich grafi Jon Montagu ismidan kelib chiqqan; “Gilyotin” eponimi frantsuz inqilobi davrida qatl qilishning insonparvarroq usulini qo'llab-quvvatlagan doktor Jozef-Ignace Gilyotin nomi bilan bog'liq. Viktoriya davri: “Viktoriya” termini 1837-yildan 1901-yilgacha Buyuk Britaniyada hukmronlik qilgan qirolicha Viktoriya nomidan olingan eponimdir. Viktoriya davri qat'iy axloq kodeksi, ijtimoiy konservatizm, sanoatlashuv va Britaniya imperializmi bilan bog'liq. “Viktoriya” o'sha tarixiy davr bilan bog'liq qadriyatlar, munosabatlarni ko'rsatuvchi eponym sifatida ishlatiladi; Maverick – an independent person who has ideas and behaviour that are very different from other people's [9], ya'ni o'zining g'oyalari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan tubdan farq qiluvchi mustaqil va erkin shaxs. Aslida ushbu eponim tamg'alanmagan chorva moli, degan ma'noni bildirib, qoramolini tamg'alashga yo'l qo'ymagan Texaslik Samuel A.Maverik ismli chorvador nomidan kelib chiqqan. Amir Temur 14-asrda yashagan Temuriylar sulolasi asoschisi. U O'zbekistonda xalq qahramoni sifatida e'tirof etiladi va o'zbek tarixi va madaniyatidagi muhim shaxs. Uning Samarqanddagi mashhur Go'ri-Amir maqbarasi asosiy sayyohlik maskani bo'lib, O'zbekistonning boy madaniy merosi ramzi hisoblanadi.

Madaniy- ijtimoiy eponimlar ma'lum bir jamiyatda nufuzli yoki mashhur shaxslarning yutuqlari va hissalarini ta'kidlash orqali madaniy va ijtimoiy qadriyatlarni aks ettirishi mumkin. Ular, madaniy kontekstga oydinlik kiritadi. Masalan, Farengeyt fizik Daniel Gabriel Farengeyt nomi bilan atalgan haroratni o'lchash shkalasi, ba'zi inglizabon mamlakatlarda, ayniqsa, AQShda ushbu shkaladan foydalanish natijasida ushbu so'z Amerika madaniyati va kundalik hayotiga kirib borgan. Fikrimizcha, Farengeytdan foydalanish Qo'shma Shtatlarda o'lchovlarga nisbatan muayyan tarixiy qarama-qarshilikni ham aks ettiradi. Metrik tizim, jumladan, Selsiy shkalasi global miqyosda qabul qilinib, keng qo'llanilsa-da, Amerika Qo'shma Shtatlari hududida Farengeytning qo'llanilishini bu qarama-qarshilikning ramzi sifatida ko'rish mumkin. Napoleon kodeksi: Napoleon Bonapart davriga oid ushbu eponim Napoleon hukmronligining ijtimoiy, madaniy va tarixiy ahamiyatini ko'rsatadi. Napoleon kodeksi fuqarolik kodeksi hisoblanib, mulk daxlsizligi, fuqarolarning qonun oldida barobar ekanligini hamda vijdon erkinligini nazarda tutuvchi kodeks bugungi kunda ham mavjud.

Sohaga oid terminologiya, odatda, fan, tibbiyot, texnologiya, adabiyot va san'at kabi maxsus sohalarda uchraydi. Ushbu terminlar ko'pincha ixtirolar, yangiliklar, nazariyalar yoki metodlarni yaratgan yoki ommalashtirgan kishilar sharafiga yaratilgan. Sohaning xususiyati til, bilim va muayyan sohalardagi ko'nikma o'rtasidagi yaqin aloqani aks ettiradi. Eponim birliklar qo'llanilishi turli tillar va madaniyatlarda farqlanishi mumkin. Ba'zi eponimlar boshqalarga nisbatan ma'lum lingvistik va madaniy kontekstlarda ko'proq tarqalgan va keng ko'lamlil bo'lishi mumkin. Masalan, “Einshteyn” so'zi butun dunyo bo'ylab ilmiy va akademik jamoalar tilida ko'proq qo'llaniladi va aynan o'sha doira mutaxassislari uning mohiyatini chuqur tushunishadi, ilmiy bo'lmagan oddiy ijtimoiy va madaniy kontekstlarda esa bu eponim kam qo'llaniladi.

Tilning leksik qatlamini boyitish: Eponimlar tilning boyitishi va rivojlanishiga hissa qo'shadi. Ular so'z boyligini kengaytiradi va murakkab g'oyalar yoki hodisalarni tasvirlashda ishlatiladi. Masalan, “Shekspir” yoki “Navoi” eponimlari ikki buyuk shaxs nomidan olingan bo'lib, ularning asarlari yoki adabiy uslubi bilan bog'liq har qanday narsaga ishora qiladi va o'ziga xos demonim shakllarni hosil qiladi. Masalan, Shakespearanizm, Sheksperean, Navoiylik, Navoiyxonlik.

Eponimlar evolyutsiyasi, til variatsiyasi va moslashish eponimlarning muhim lingvokulturologik jihatlari hisoblanadi. Eponimlar tillar va madaniyatlarda farqlanadi, ya'ni ba'zi eponimlar bir nechta tillarda ekvivalentiga ega bo'lsa, boshqalari yagona lingvistik ifodani aks ettirib, faqat yaratilgan jamiyatdagina mazmun-mohiyati chuqur anglashiladi. Vaqt o'tishi bilan eponimlarning talaffuzi yoki asl mazmuni o'zgarishi mumkin. Ba'zan eponim bilan shaxs o'rtasidagi bog'liqlik kontekstli assotsiatsiyalar, ijtimoiy qadriyatlar yoki madaniy o'zgarishlar tufayli almashishi mumkin. Masalan, "Boykot" eponimi ta'rifga ko'ra "to engage in a concerted refusal to have dealings with (a person, a store, an organization, etc.) usually to express disapproval or to force acceptance of certain conditions" [10], ya'ni shaxs, do'kon, tashkilot va h.k. kabilar bilan tovar olish, sotish yoki ish ko'rishda e'tiroz bildirish, ixtiyoriy ravishda bosh tortish, norozilik bildirish yoki muayyan shartlarni qabul qilishga majbur qilish kabi siyosiy iqtisodiy kurash turi. Aslida Charlz Kanningem Boykot sharafiga nomlangan ushbu termin Boykot bilan bog'liq bo'lgan tarixiy voqea bo'lgan va hozirda siyosiy iqtisodiy tus olgan eponim hisoblanadi. Shuningdek, eponimlar vaqt o'tishi bilan asl assotsiatsiyasidan tashqari kengroq tushunchalarni qamrab olish uchun ma'nosini kengaytirishi mumkin. Masalan: "Google" dastlab qidiruv tizimining nomi bo'lgan, ammo endilikda qaysi qidiruv tizimidan foydalanilishidan qat'i nazar, uning ma'lumotni onlayn qidirishni bildiruvchi fe'llik xususiyati ham mavjud. "Freyd", ya'ni "Freydian" eponim sifati dastlab Zigmund Freydning psixanalitik nazariyalari bilan bog'langan, ammo keyinchalik ma'nosi kengayib, psixanaliz yoki ongsizlik talqini bilan bog'liq har qanday narsani tasvirlash uchun ishlatila boshlangan. Bundan tashqari, ba'zi eponimlarning talaffuzi boshqa tillarda tilning fonetik qoliplariga qarab o'zgarishlarga uchraydi. Masalan, "Gerrymander" |'dʒerimændər| [12] (Elbridge Gerry va Salamander nomi bilan atalgan). Ingliz tilida bu so'z "jeh-ree-man-der" deb talaffuz qilinadi. So'zning o'zi "Gerry" va "salamander" so'zlarining aralashmasidan hosil bo'lgan eponim bo'lib, boshqa tillarda moslashuvi fonetik modifikatsiya natijasida "ge-ree-mahn-der" yoki "heh-ree-man-der" tarzida ham talaffuz qilinadi. Yana bir misol, Ibn Sino g'arb davlatlarida Avitsenna eponimi bilan tilga olishadi. O'rta asrlarda Ibn Sinoning ko'pgina asarlari Yevropada o'sha davrning ilmiy tili hisoblangan lotin tiliga tarjima qilingan. Uning ismini lotin tiliga tarjima qilganda, olimlar uni lotin tili va talaffuziga moslashtirishgan. Demak, Avitsenna so'zi Ibn Sino so'zining lotinlashtirilgan versiyasi hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan tahlillar va misollardan ko'rinib turibdiki, eponimlar til, madaniy va ijtimoiy omillar ta'sirida rivojlanishi, moslashishi va o'zgarishi mumkin. Eponimlarning evolyutsiyasi va moslashuvi tilning rivojlanuvchan tabiatini va uning bizni o'rab turgan dunyo bilan bog'liqligini aks ettiradi.

Ingliz va o'zbek eponimlarining lingvomadaniy xususiyatlarini tadqiq qilish jarayonida ikki tilda quyidagi umumiy va xususiy jihatlari ko'zga tashlandi:

a) eponimlar ilm-fan, adabiyot, san'at va tibbiyot kabi turli sohalarga katta hissa qo'shgan shaxslarni hurmat qilish va xotirlash uchun xizmat qiladi. Ular shaxslarning yutuqlari va merosiga doimiy hurmat bilan qarashni ta'minlaydi;

b) eponimlar yangi so'z va terminlarni kiritish orqali tilning lug'at boyligini kengaytiradi va ko'pincha ma'lum bir shaxs bilan bog'liq kontseptsiya yoki g'oyani qamrab oladi;

c) eponimlar kishilarning madaniyat va jamiyatga ta'sirini aks ettiradi. Ular muayyan shaxslarning jamiyat yoki millatning umumiy madaniy merosiga hissa qo'shganini ko'rsatadi;

d) eponimlar ko'pincha tarixiy kontekstni o'z ichiga oladi va ular yaratilgan davr, ijtimoiy norma va madaniy qadriyatlar haqida tushuncha berib, til va jamiyatning rivojlanishi va evolyutsiyasini tushunishimizga yordam beradi;

e) ingliz tilida nomlash yoki atash ko'pincha antroponim, toponim kabi onimlar va ularning xususiyatlari dominantligi negizida amalga oshirilsa (Altsgeymer kasalligi, Parkinson kasalligi, Daun sindromi, Myunxauzen sindromi), o'zbek tilida nomlash onimlar xususiyati bilan birga nomlangan yoki atalgan ixtiro, yangilik yoki biror bir tushuncha tabiatidan kelib chiqib, amalga oshirilgan. Bu, ayniqsa, meditsinada Ibn Sino kashfiyotlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, bod kasali, xafaqon kasali. Chunki Ibn Sino kasalliklarni belgilariga qarab tasniflagan;

f) o'zbek eponimlarining yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, nomlangan eponimlar antroponimlar bilan birga toponimik etnonimik tabiati ham ko'zga tashlanadi. Masalan, Samarqand noni, Olot somsasi, G'urbin anori.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, eponimlar jamiyatga doimiy ta'sir ko'rsatgan shaxslarning hissasi va merosini o'zida aks ettiradi, tilning lisoniy manzarasini boyitish orqali til va madaniyatda muhim o'rin tutadigan kalit so'zlar hisoblanadi. Ingliz va o'zbek eponimlarining o'ziga xos umumiy va xususiy tabiati mavjud bo'lib, ular ikkala til madaniyatining o'ziga xosligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Collins English Dictionary – Complete and Unabridged, 12th Edition. Harper Collins Publishers, 2014.

Giordano, Nicholas. College Physics: Reasoning and Relationships. Cengage Learning, 2009, pp. 421–424.

Wiggin, Addison. “Small Business Owners Should Be Obama’s Lenny Skutnik” Forbes. Retrieved 2012-01-24.

Нажмиддин Комилов. Тасаввуф. – Toshkent. Movarounnahr, O’zbekiston. 2009. – 404-406 betlar.

<https://www.britannica.com/science/Avogadros-law>

<https://www.collinsdictionary.com/submission/19242/Trumponomics>

<https://ferganatourism.uz/shelkodeliye/album/yedgorlik>

<https://lex.uz/docs/-213812?ONDATE=10.06.1999#-213822>

<https://www.macmillandictionaryblog.com/maverick>

<https://www.merriamwebster.com/dictionary/boycott#:~:text=%3A%20to%20join%20with%20others%20in,boycott>

[https://uz.wikipedia.org/wiki/Samarqand\\_qog%CA%BBozi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Samarqand_qog%CA%BBozi)

<https://woordhunt.ru/word/gerrymander>